

---

## BESHARIQDA SAYYOR QABUL

Farg'ona viloyat sudi raisi, Farg'ona viloyati ma'muriy sudi raisi, maxalla va oilani qo'llab quvatlash boshqarmasi boshlig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg'ona viloyatidagi Xalq Qabulxonasi mudiri tomonidan 2022 yil 07 yanvar kuni tasdiqlangan "2022 yil 1-yarmi davomida Farg'ona viloyatining tuman va shaharlarida jinoyat va huquqbuzarliklar, nikohdan ajratish, tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokidagi nizolar hamda fuqarolarning murojaatlari ko'paygan maxallalar, tumanlarda "Maxallabay" tizimida profilaktika ishlarini jonlantirishga qaratilgan sayyor qabullarning rejasi ijrosi"ga asosan 2022 yil 12 fevral kuni Beshariq tumanida bir qator targ'ibot tadbirlari hamda sayyor qabullar o'tkazildi.

Xususan, 2022 yil 12 fevral kuni soat 10<sup>00</sup>dan 12<sup>00</sup>ga qadar Beshariq tumani Rapqon MFY binosida, Farg'ona viloyat sudi sudyasi U.Xo'jaqulov, Marg'ilon shaxar tumanlararo Iqtisodiy sudining sudyasi X.Boynazarov, fuqarolik ishlari bo'yicha O'zbekiston tumanlararo sudining raisi E.Ismoilov, jinoyat ishlari bo'yicha Beshariq tuman sudining raisi F.Sobirov va sudyasi N.Salomovlar tomonidan alohida sayyor qabullar o'tkazildi.

Xususan, Farg'ona viloyat sudi sudyasi U.Xo'jaqulov tomonidan 3 nafar, Marg'ilon shaxar tumanlararo Iqtisodiy sudining sudyasi X.Boynazarov tomonidan 1 nafar, fuqarolik ishlari bo'yicha O'zbekiston tumanlararo sudining raisi E.Ismoilov tomonidan 5 nafar, jinoyat ishlari bo'yicha Beshariq tuman sudining raisi F.Sobirov tomonidan 5 nafar va sudyasi N.Salomov tomonidan 3 nafar fuqarolar qabul qilidi.

Murojaatlaning 6 tasi qanoatlantirildi hamda 11 nafar fuqarolarga xuquqiy tushuntirishlar berildi.

Nodir Salomov

Jinoyat ishlari bo'yicha

Beshariq tuman sudining sudyasi

2022-02-14 15:35:21